

## JURNALISTLAR XOTIN-QIZLAR FAOLLARI TOMONIDAN OLIB BORILAYO TGAN ISHLAR BILAN TANISHISHDI

Bugun 2022 yil 14 dekabrb kuni AOKA direktori va viloyat hokimi tomonidan tasdiqlangan reja-grafikka asosan Rishton tumanida navbatdagi press-tur o'tkazildi. Mazkur tadbirda tumanimizda faoliyat yuritayotgan jurnalistlar, ijtimoiy tarmoq faollari va tuman oila va xotin-qizlar bo'limi xodimlari ishtirok etishdi.

Press-tur qatnashchilari dastlab "Dasht Tegirmon" mahalla fuqarolar yig'ini xotin-qizlar faoli Muqaddasxon Ahmadalieva tomonidan olib borilayotgan ishlar bilan tanishishdi. Xotin-qizlar va oila masalasi - bu nafaqat bugungi kunimiz, balki ertangi kelajagimizni ham belgilab beradigan hal qiluvchi omildir. Agar biz mehr-oqibat va sadoqat timsoli, xonodonlarimiz farishtasi bo'lgan ayollarga bitta yaxshilik qilsak, hech shubhasiz, bu o'nta yaxshilik bo'lib qaytadi. Mahalla fuqarolar yig'inlarida faoliyat yuritayotgan xotin-qizlar faollari aholi muammolarini o'rganish va hal etishda yaqin ko'makchi bo'lishi kerak. Oila va xotin-qizlarning muammolarini o'z vaqtida aniqlash, og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan oila va xotin-qizlarga ijtimoiy-huquqiy, psixologik yordam ko'rsatish, xotin-qizlarni oilaviy va xususiy tadbirkorlikka, hunarmandchilikka jalb qilish borasida tizimli ishlarni amalga oshirishga harakat qilyapmiz, - deydi Muqaddasxon Ahmadalieva.

Ushbu mahallada yashovchi ishsiz xotin-qizlarga subsidiya asosida berilgan tikuv dastgohlaridan samarali foydalanilganligi bois oilalarning kunlik o'z daromadi yuzaga kelmoqda. Hozirda Dasht Tegirmon MFY da "Ayollar daftari"ning birinchi toifasiga kiritilgan Dildoraxon Umarovaga subsidiya asosida tikuv mashinasi berilgan edi. Hozirda fuqaro o'zining kasbini davom ettirib, o'z yoniga vaqtincha ishsiz bo'lgan yoshlarni jalb qilib, ustoz-shogird an'anasi davom ettirmoqda. Albatta bugungi kunda har bir sohada ustoz-shogird an'analari mavjud bo'lib, bizning tumanda hunarmandchilikning deyarli barcha sohalarida ilg'orlik namoyon bo'lmoqda. Oramizda kasbi ortidan nafaqat oilasiga, balki boshqalarga ham naf keltirayotgan, ularning ko'nglini topib, mushkulini oson qilayotgan insonlar juda ko'p. Dasht Tegirmon mahalla fuqarolar yig'inida istiqomat qiluvchi Dildoraxon Boboniyo佐ova ana shunday kasb egasi. U bugun mahallasining faxriga aylanib bormoqda. Dildoraxon "Ayollar daftari"ning 2-bosqichida ro'yxatga olingan edi. U bankdan kredit olib, paypoq ishlab chiqarishni yo'lga qo'ydi. Qisqa fursatda faoliyatini kengaytirib, mahalladagi o'zi singari ishsiz ayollarni atrofiga jamladi. Bundan tashqari, MFY xotin-qizlar faoli tomonidan ishsiz ayollar bandligini ta'minlash maqsadida tuman Xalq banki xodimlari yordami bilan imtiyozli kredit asosida tadbirkorliklar yo'lga qo'yilib, issiqxonalar tashkil etilmoqda.

Press-tur ishtirokchilari shuningdek, "Oq yer" mahalla fuqarolar yig'ini xotin-qizlar faoli Naziraxon O'tanovaning ish faoliyati bilan ham tanishishdi. Oq yer mahalla fuqarolar yig'ini hududida jami 1628 nafar ayollar mavjud bo'lib, ulardan 95 nafari "Ayollar daftari"ga ro'yxatga olingan va ularga manzilli yordamlar ko'rsatilib kelmoqda. Xotin-qizlarning ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo'llab-quvvatlash, ularning huquq va erkinliklarini ta'minlashda amalga oshirilayotgan islohotlar bo'yicha xizmat qilayotgan «Ayollar daftari»ni yuritish orqali mahalladagi xotin-qizlar muammolarini o'rganish va hal etish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, ularning 5 nafariga subsidiya asosida tikuv mashinasi berildi. Ulardan biri Ra'no Ro'zmatova bo'lib, bugungi kunda o'z daromad manbaiga ega bo'lmoqda. Shuningdek, Zulfiya Qunduzovaga parrandachilik bilan shug'ullanishi uchun 11,6 mln. so'm, Turg'unoy Tirkashevaga issiqxona tashkil etish uchun 33,0 mln so'mlik kredit olib berildi.

2022-12-14 14:37:47